FARG‘ONA VODIYSIDA SAVDO YO‘LLARI VA ULARNING SHAHARSOZLIKKA TA’SIRI

Nabiyev Sherzod Farhodjon o`g`li
Qo'qon davlat pedagogika institutI
Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(Tarix) mutaxassisligi, 2-bosqich magistranti
sherzodbeknabiyev06@gmail.com
+9989508828108

Anotatsiya. Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining tarixiy rivojida savdo yo‘llarining o‘rni va ularning shaharsozlik jarayonlariga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida arxeologik topilmalar, yozma manbalar va tarixiy dalillar asosida Farg‘ona vodiysining qadimiy madaniy markaz sifatida shakllanishi yoritilgan. Buyuk Ipak yo‘lining vodiy orqali o‘tgan tarmoqlari iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga, shaharlarning paydo bo‘lishi va ularning ijtimoiy infratuzilmasining kengayishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, irrigatsiya tizimlari va mudofaa inshootlari shaharsozlikning jadallashuvi hamda urbanizatsiya jarayonining shakllanishida muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar.Farg‘ona vodiysi, savdo yo‘llari, Buyuk Ipak yo‘li, shaharsozlik, arxeologiya, urbanizatsiya, madaniy markaz, irrigatsiya tizimi, tarixiy yodgorliklar.

Kirish. Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng qadimiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Uning geografik joylashuvi — Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgani — bu hududning iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida beqiyos o‘rin tutgan. Qadimdan Farg‘ona xalqlari qo‘shni So‘g‘d, Baktiriya, Xorazm, Choch, Sharqiy Turkiston kabi yurtlar bilan doimiy savdo va madaniy aloqalar o‘rnatib kelgan. Aynan shu savdo yo‘llari orqali vodiyda shaharsozlik, hunarmandchilik va dehqonchilik madaniyati jadal rivoj topgan.Mazkur tadqiqotda Farg‘ona vodiysining savdo

yo‘llari tizimi, ularning shaharsozlik jarayonlariga ta’siri hamda urbanizatsiya jarayonining bosqichlari arxeologik, tarixiy va yozma manbalar asosida tahlil qilinadi. Shu orqali vodiyning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida savdo aloqalari va sug‘orish tizimlarining tutgan o‘rni aniqlanadi.

Yevropa bilan Osiyoni bog‘lovchi xalqaro savdo va muloqot yo‘li hisoblangan Buyuk Ipak yo‘lining tarixi qadim-qadimlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi 2-minginchi yillardan boshlangan O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston xalqlarining janubda Hindiston va Eron, janubi-g‘arbda Old Osiyo xalqlari bilan o‘zaro aloqalari miloddan avvalgi IX–VIII va VI–V asrlarga kelganda yanada kengayadi. Farg‘onadan topilgan Haq va Aflotun topilmalari farg‘onaliklarning bu davrda janubiy, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari bilan yaqindan aloqada bo‘lganligining guvohidir.[8]

Qadim Farg‘ona vodiysi xuddi Baktiriya, So‘g‘d, Xorazm kabi yirik tarixiy madaniy o‘choqlardan biri bo‘lgan. Vodiyning atrofga nazar solsangiz, to‘rt tomoni o‘ralgan va qutblardan madaniy hamda iqtisodiy sohada bir qadar ajralib turganga o‘xshaydi. Bir jihatdan, Farg‘ona o‘ziga xos madaniyatga ega ham. Ammo bu bilan vodiy qo‘shni voha va mintaqalardan ajralib qolgan ekan, deb xulosa chiqarmaslik lozimO‘z navbatida, Farg‘ona qo‘shni yurtlar (Choch—Toshkent, Sharqiy Turkiston, So‘g‘d) bilan qadimdan yaxshi qo‘shnichilik aloqalari qilib kelgan. Ularning moddiy madaniyatidagi ba’zi elementlarni olish bilan birga, qo‘shnilarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Ushbu o‘zaro ta’sirni vodiyda 100 yildan ortiq davr mobaynida olib borilayotgan arxeologik qidiruv ishlari yaqqol ko‘rsatib turadi.

Samarali o‘tgan yirik qurilishlar davrida olib borilgan arxeologik ishlardan natijada vodiyning yuzlab yodgorliklariga oid dastlabki materiallar to‘plandi. Bu esa Farg‘ona qadimiy tarixini faktik materiallar bilan boyitishda muhim omil bo‘ldi.[10]

Shu bilan birga xalqaro savdo aloqalarining kengayishi, ko‘p tarmoqli hunarmandchilikning jadal rivojlanishi, konchilikning tezkorlik bilan o‘sishi

shahar madaniyatini har tomonlama barq urib, gullab-yashnashiga olib keldi. Natijada, shahar madaniyati va turmush tarzi jamiyatning asosiy mezoniga aylanadi. Bu davrda shahar atrofigina emas, balki uzoq qishloqlar ham shaharga taqlid qilib yashay boshlaydi. Shuning uchun ham Xitoy manbalarida katta qishloqlar ham shahar deb tilga olinadi. Axsikent singari poytaxt shaharlar esa har tomonlama rivojlanadi. Ayniqsa, milodning V–VII asrlarida shaharda uy-joy qurilishiga katta ahamiyat beriladi. Uylar besh-olti xonali qilib qurilgan. Xona devorlari juda silliq qilib suvalgan, ba'zi uylarda suvoq ustidan rangli bo‘yoqlar berilgan. Har bir xonadonda alohida yotoqxona, omborxona, oshxona, bir xillarida toza suv qudug‘i ham bor. Yotoqxonalarda devor bo‘ylab keng supa, yerda esa sandalga o‘xshash isitgich o‘choqlar mavjud. Bu davrga kelib qit'alararo yo‘l O‘zbekiston, jumladan Farg‘ona xalqlari hayotida juda muhim rol o‘ynay boshlaydi. Ayniqsa, VI–VII asrlarga kelib so‘g‘d–turk savdogarlari sharqda Xitoy orqali Koreya va Yaponiyagacha, g‘arbda O‘rta yer dengizi bo‘yi davlatlarigacha, janubda Hindiston va Tseylongacha borib, savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanganlar. Bu esa O‘zbekistonning qadimgi viloyatlari hisoblangan Shosh–Iloq (Toshkent), Farg‘ona (Farg‘ona vodiysi), Ustrushona (Sirdaryo–Jizzax) va So‘g‘dni (Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro) iqtisodiy barkamollikka, ularda yashagan xalqlar turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi. Bu borada Axsikent va Samarqand singari yirik shaharlar katta rol o‘ynagan.Buyuk Ipak yo‘li tovarlarga, jumladan, ipakga to‘la matolar, qimmatbaho toshlar, oltin va kumush buyumlar, dori-darmonlar va rang-barang bo‘yoqlar, samoviy tulporlar, ajoyib qushlar, jannatiy mevalar va har xil ichimliklar tashilgan. Afsonalarga boy bu yo‘l bo‘ylab iste'dodli musiqachilar, aktyorlar, rassomlar, qo‘li gul ustalar va din targ‘ibotchilari sayohat qilganlar. Yozma manbalarning bergan xabarlariga qaraganda, Xitoy imperatori saroyida Toshkent va Samarqanddan borgan san'at ustalari doimiy chiqishlar qilib turgan. Xitoy imperatorlari Farg‘onaning samoviy tulporlarida sayr qilishni hamda saf tortib turgan harbiy qo‘shinlari oldida paydo

bo‘lishni yaxshi ko‘rgan. O‘rta Osiyo podshohlari esa Xitoy ipak matolaridan tikilgan liboslarni yaxshi ko‘rib kiyishgan.[8]

Farg‘ona vodiysining yirik arxeologik yodgorliklari bo‘lmish O‘lato‘g‘da, Mingtepa (Marhamat), Koson, Axsikent, Qo‘qon, Uzgen hududlarida ilmiy tekshirish ishlari olib bordi. Yozma manbalar ma’lumotlarini qazishma natijalari bilan solishtirib ko‘rish orqali olim muhim xulosalar chiqardi.Ana shu xulosalardan biri — qadimiy Farg‘ona madaniyati ikki yo‘nalishda bo‘lganligi (dehqonchilik va chorvachilik) hamda ularning bir-biriga o‘zaro ta’siri haqidagi fikrdir. Bunga ko‘ra, vodiyda qadim zamonlardan beri dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvadorlik madaniyati mavjud bo‘lgan. Tekislik hududlar, soy va daryo bo‘ylarida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlar yashagan bo‘lsa, tog‘li hududlar va yaylovlarda ko‘chmanchi chorvadorlar istiqomat qilgan. Bu tarixiy jarayon hozirga qadar davom etmoqda.Farg‘ona qadimiy tarixini neolit davridan keyingi davriga oid yodgorliklar umuman topilgani yo‘q. Masalan, eneolit, ilk bronza davri muammolari vodiy arxeologiyasidagi «oq dog‘lar»dir. Bundan kelib chiqib Farg‘onada shu davrda hayot to‘xtaganmi? degan savol qo‘yilmasligi kerak. Chunki o‘sha neolit davridan keyingi vaqtga taalluqli, kam bo‘lsa-da, topilmalar Farg‘onani u yer bu yerida tasodifan topilgan. Bular qatoriga Namangan viloyatidan 1894 yili topilgan Xo‘q hazinasi (era dan ilgari ikki minginchi yillikning birinchi yarmi), 1924 yili topilgan Aflotun hazinasi (era dan ilgari ikki minginchi yillik o‘rtalari), Farg‘ona viloyati So‘x kengligida aniqlangan toshdan yasalgan ilonlar asosida haykaltaroshlik ishlangan idish (era dan ilgari ikki minginchi yil) kiradi. Bularni keyinroq Farg‘onaga kelib tushgandir degan shubhaning bo‘lishi ham tabiy. [10]

Tarix fanida urbanizatsiya jarayonini turli davrlardagi xususiyatlari hisobga olinib: eng qadimgi, qadimgi va o‘rta asrlar shaharlariga bo‘linadi. Shaharni shahar bo‘lishi uchun o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda ko‘pgina sabablar mavjud bo‘ladi. Birinchidan, shaharda savdo va sanoat bilan bog‘liq mehnat taqsimoti hukmron bo‘lib, qishloqdan iqtisodiy jihatdan farq qiladi. Boshqacha aytganda,

iqtisodiy jihatdan shahar bilan qishloq bir-birini to‘ldiradi, bir-birisiz yashay olmaydi. Qishloq shaharga dehqonchilik mahsulotlari bersa, shahar o‘z navbatida qishloqqa hunarmandchilik yoki sanoat tovarlari beradi.Ikkinchidan, shahar qishloqdan nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki o‘z jamoa tuzumlari tarkibi bilan ham farq qiladi. Jumladan, shahar o‘ziga xos ravishda boshqariladi, o‘z solig‘i bo‘ladi. Ikkinchidan, shahar qishloqdan nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki o‘z jamoa tuzumlari tarkibi bilan ham farq qiladi. Jumladan, shahar o‘ziga xos ravishda boshqariladi, o‘z solig‘i bo‘ladi.[10]

Farg‘ona yodgorliklari uchun quyidagi shahar elementlari aniq belgilangan Qazib o‘rganilayotgan yodgorliklarning o‘lchamlari yirik bo‘lgan Mukammal mudofaa tizimiga ega bo‘lgan Albatta ark va keyinchalik hokim qarorgohi bo‘lgan Atrofdagi dehqonchilik qishloqlari uchun markaz vazifasini bajargan Hunarmandchilik markazi bo‘lishi bilan birga savdo-sotiq va tovar ayirboshlash markazi hisoblangan.[10]

Kuchli mudofaga ega bo‘lgan qal'alar kanallar bo‘yida har 2-3 km.da qurilib, ularga shu xududga zarur suv taqsimotini nazorat va mudofa qilish vazifasi yuklatilgan. Albatta, bunday keng ko‘lamdagi bunyodkorlik natijasida soylar bo‘yida joylashgan bir qator manzilgohlar ular hududidan ichki va tashqi savdo yo‘llarining o‘tishi, ayrim hollarda esa strategik ahamiyatga ega manzilgohlar yirik mudofalangan qalьalar va o‘ziga xos markazlarga aylanishi mumkin bo‘lgan. Ayrim ma'lumotlarda Sho‘raboshot madaniyatiga oid yodgorliklar 50 dan ortiq deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, ba'zilarida faqatgina Shaxrixonsoy bo‘yida 40 ta yodgorlik aniqlangani berilgan. Vaholangki bu kabi suv inshootlari, u qadar katta uzunlikga ega bo‘lmasada, bir necha o‘nlab qurilganligi aniqlangan. Yuqorida keltirilgan holat oldingi davrlarda faqat daryo va soy deltalaridagina emas, balki ancha keng hududda dehqonchilik bilan shug‘ullanish imkonini bergan. Zero, bu inshootlarning uzunligi bir necha 100 m dan 100 km gacha borgan. Bu esa, o‘z navbatida, shaharsozlik ko‘lamini kengaytirib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayotida tub o‘zgarishlarni sodir ettirgan. O‘z o‘rnida esa bu vaziyat eski

voha mudofaa tizimlarini yanada murakkablashtirib, ularni o‘zaro bog‘lanishlarini mustahkamladi. Fikrimcha, bu davrlarda shaharlar shakllanishi ham aynan voha mudofa tizimlarini takomillashtirish orqali savdo yo‘llarining hafsizligini oshirish tufayli ravnaq topgan. Ahamiyatlisi shundaki, bu davrning deyarli barcha sun’iy sug‘orish inshootlari, asosan, Sho‘raboshot madaniyatiga oid yodgorliklari joylashgan hududda aniqlangan.Agar davlatchilikning shakllanishi bevosita keng ko‘lamda irrigatsiya inshootlarini barpo qilish bilan bog‘lansa, demak aynan sharqiy qismidan uning g‘arbiy sarhadlarigacha urbanizatsiya jarayonlari jadallashib borganligidan dalolat beradi.[9]

Xulosa.O‘tkazilgan tadqiqotlar Farg‘ona vodiysi tarixida savdo yo‘llarining nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy taraqqiyot uchun ham asosiy omil bo‘lganini ko‘rsatadi. Aynan Buyuk Ipak yo‘li orqali vodiyda shaharsozlik keng quloch yoyib, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq hamda madaniy aloqalar rivojlangan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar Farg‘onadagi qadimiy shaharlarning shakllanishida savdo yo‘llari, irrigatsiya tizimlari va mudofaa inshootlarining hal qiluvchi rol o‘ynaganini tasdiqlaydi.Demak, savdo yo‘llari Farg‘ona vodiysi shaharlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishida urbanizatsiya jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lgan. Ushbu jarayon hozirgi kunda ham mintaqaning iqtisodiy va madaniy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ;

G‘ulomov Ya. G. Drevnyaya Fergana. – Tashkent: Fan, 1960.

Asqarov A. O‘zbekiston tarixi qadimgi davrlardan hozirgacha. – Toshkent, 2019.

Berdimurodov A. Markaziy Osiyo shaharsozlik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2017.

Buryakov Ю. Ф. Археологические памятники Ферганы. – Москва, 1982.

Sodiqov A. Buyuk Ipak yo‘li tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

Rashidov R. Farg‘ona vodiysi sivilizatsiyasi tarixi. – Toshkent, 2020.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005.

Anorboyev A. O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. – Toshkent: Fan, 2001. – 68-bet.

Abdullayev B. M. Farg‘ona vodiysi qadim madaniyatlarining so‘nggi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o‘rni va roli. // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 1995 yil

Matboboyev R. T., Shamsiddinov A. M. Buyuk Ipak yo‘lidagi Farg‘ona shaharlari. – Andijon: Meros, 1994.